

## O'ZBEKISTON MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

**Temirova Shaxnoza Yusupovna**

*O'zbekiston Republikasi Bank-moliya akademiyasining 2-kurs magistri*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada maktabgacha ta'lif tashkilotlarining moliyaviy ta'minlash tizimini takomillashtirishning ob'yektiv zaruriyatni ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Mamlakatimizda sohaga doir masalada amalga oshirilayotgan ishlar, maktabgacha ta'lif tashkilotining mamlakat ta'lif tizimidagi o'rni, qamrov darajasi va holati tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *byudjetdan moliyalashtiriluvchi muassasalar, davlat byudjeti mablag'lari, moliyaviy munosabatlar, maktabgacha ta'lif muassasalarining moddiytexnik holati, mehnatiga haq to'lash, xodimlarni moddiy rag'batlantirish jamg'armasi, yagona ijtimoiy to'lov xarajatlari.*

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o'n, yuz barobar ko'p foyda keltiradi .

Davlat statistika agenligining ma'lumotlariga ko'ra, har yili O'zbekiston Respublikasida 700 mingdan ortiq bola tug'iladi, bu esa maktabgacha ta'lif tashkilotlariga tushadigan yukni oshiradi. Chunonchi, maktabgacha ta'lif tashkilotlariga tushadigan umumiyligi ortiqcha yuk respublika bo'yicha 12 foizni tashkil qilsa, uning eng yuqori darajasi Qoraqalpog'iston Respublikasida (21 foiz), Jizzax (35 foiz) va Buxoro (21 foiz) viloyatlarida, eng past darajasi esa Surxondaryo (9 foiz) va Farg'ona (9 foiz) viloyatlarida, shuningdek Toshkent shahrida (6 foiz) kuzatilmoxda. Umuman, mamlakat bo'yicha 3-7 yoshdagi har 100 nafar bolaga maktabgacha ta'lif muassasalarida 28,1 ta joy to'g'ri keladi.

Konsepsiya maktabgacha ta'lifni rivojlantirish sohasida davlat siyosatini muvaffaqiyatli yuritishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar va kamchiliklar sanab o'tildi:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning to'liq qamrab olinishini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lif muassasalari sonining yetarli emasligi;
- qishloq joylarda maktabgacha ta'lifning past darajada rivojlanganligi;
- maktabgacha ta'lif muassasalarining moddiy-texnik holati lozim darajada emasligi;
- maktabgacha ta'lif muassasalarining malakali pedagog kadrlar bilan jamlanmaganligi;
- maktabgacha ta'lif tizimida boshqaruv kadrlarining tanqisligi va ular malakasining pastligi;

- ota-onalarning bola shaxsining shakllanishida maktabgacha ta'limning ijobili jihatlari va foydasi haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasligi;
- zamonaviy o'quv-metodik materiallar va ko'rgazmali qurollarning yetishmasligi;
- alohida ehtiyojli bolalar uchun mavjud maktabgacha ta'lim muassasalarining texnik jihozlanishi va uslubiy ta'minoti darajasining pastligi;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va tibbiyot xodimlarining malakasi zamon talablariga to'liq javob bermasligi.

Umuman, byudjetdan moliyalashtiriluvchi muassasalar va ayniqsa, uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'inlaridan hisoblanmish maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarishning iqtisodiy asoslaridan biri bo'lgan moliyaviy munosabatlarning xususiyatlarini o'rganish, maktabgacha ta'lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish mexanizmini yoritish muhim ahamiyatga ega.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, 2022 yil 20 dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida: "So'nggi olti yilda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darjasи 27 foizdan 70 foizga yetishi natijasida bugungi kunda 2 millionga yaqin bola bog'chaga bormoqda. Yaqinda Toshkent shahrida o'tkazilgan YUNESKOning Maktabgacha ta'lim bo'yicha Umumjahon anjumanida ham bu islohotlarimiz yuksak e'tirof etildi.

Shu bilan birga, kelgusi besh yilda qamrovni 80 foizga yetkazish uchun 600 ming yangi bog'cha o'rni kerak. Bu – juda katta marra. Shu bois, bog'chalar sonini ko'paytirish, ulardagi ta'lim va tarbiya sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha besh yillik dastur qabul qilinadi. Bog'cha qamrovini kengaytirish bo'yicha xususiy sektorga qo'shimcha sharoitlar yaratiladi."

Mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar zamirida Vatanimizni yanada taraqqiy ettirish, yoshlarni har jihatdan barkamol shaxs etib voyaga yetkazish, sohalar uchun yuqori bilimga ega mutaxassislarini tayyorlashdek maqsadlar mujassamdir. Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investisiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-20 barobar foyda keltiradi. Inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart. Shu yildagi muhim amaliy qadam sifatida bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darjasи 2021 yilda 65 foizga oshirishga erishildi.

Dastlabki yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimiga doir bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Uzoq qishloqlarda maktabgacha ta'limni uyda berish modelini YUNESKO va Jahon banki bilan hamkorlikda yo'lga qo'yilishi rejalashtirildi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyat xususiyatlariga ko'ra quyidagi tiplarga bo'linadi:

- umumiy tipdagi maktabgacha ta'lif muassasalari;
- ixtisoslashtirilgan (jismoniy va ruhiy rivojlanishida turli nuqsonlari mavjud bo'lgan bolalar uchun) maktabgacha ta'lif muassasalari;
- sanatoriy tipidagi (zaif, turli yuqumli kasalliklarni boshdan kechirgan, surunkali asoratlarga ega bo'lgan bolalar uchun) maktabgacha ta'lif muassasalari.

2021 yilda maktabgacha ta'lif qamrovi 65 foizga, 2023-yil oxirida esa 75 foizga yetkaziladi. 600 milliard so'm subsidiya berilib, 2 mingta xususiy bog'cha ochiladi; xususiy sektor ulushi 25 foizga yetadi.

6 yoshli bolalarni maktabga majburiy tayyorlash tizimi yo'lga qoo'yildi. 2021 yilda 6 yoshli bolalarning 82 foizi (560 ming nafar) maktabga bepul tayyorlov jalb etildi


Uzoq qishloqlarda maktabgacha ta'lifni uydá berish modeli yo'lga qoo'yiladi. YUNESKO va jahon banki bilan hamkorlikda.

1-rasm. Maktabgacha ta'lifni rivojlantirish bo'yicha istiqbolli rejalar

Muassasaning qanday tipga mansubligi uning xarajatlarini rejalashtirishda hisobga olinadi. Maktabgacha ta'lif tashkiloti o'z moliyaviy-xo'jalik faoliyatini byudjet mablag'lari va byudjetdan tashqari mablag'lar doirasida amalga oshiradi.

Umumiy tipdagi davlat MTTlarini saqlash bilan bog'liq xarajatlar MTTlarining bo'ysinuviga ko'ra tumanlar va shaharlarning mahalliy byudjetlaridan mablag' bilan ta'minlanadi. Ixtisoslashtirilgan va sanatoriy tipidagi MTTlari, odatda, viloyatlar byudjetlaridan yoki respublika byudjetidan mablag' bilan ta'minlanadi.

Shuningdek, MTTlarning xarajatlarini rejalashtirishda bog'chalarning ishslash rejimi, ya'ni ularda bolalarning bo'lish vaqt (3-4 soatlik, 9 soatlik, 10,5 soatlik, 12 soatlik) inobatga olinadi.



2-rasm. Maktabgacha ta'lif tashkiloti mol-mulkini va moliyaviy resurslarini shakllantirish manbalari<sup>1</sup>

Quyidagilar maktabgacha ta'lif tashkiloti mol-mulkini va moliyaviy resurslarini shakllantirish manbalari hisoblanadi:

-byudjet mablag'lari va byudjetdan tashqari mablag'lar;

-boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy ehsonlari hamda maqsadli badallari;

-qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Ma'lumki, yuqorida nomi keltirilgan PF-5198-sonli Prezident Farmoniga ko'ra, maktabgacha ta'lim muassasalarining davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish, ular o'rtaida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, davlat va xususiy sektor sherikligi shartlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yangi shakllarini joriy etish belgilangan. Bugungi kunda mamlakatimizda 200 dan ortiq nodavlat ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda . Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini yanada rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bilan davlat-xususiy sherikchilik shartlari asosida tashkil qilinadigan nodavlat MTTlarini davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qo'llab-quvvatlash choralarini ko'zda tutilgan. Xususan, davlat byudjetidan nodavlat MTTlariga davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining bir nafar tarbiyalanuvchisiga sarflanadigan summaning 50 foizidan yuqori bo'limgan miqdorda subsidiyalar ajratilishi belgilangan. Subsidiyalar nodavlat ta'lim muassasalariga har oyda ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan har bir bola uchun (9 va 10,5 soatlik ish rejimidagi) davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining bir nafar tarbiyalanuvchisiga sarflanadigan xarajatlar summasining Toshkent shahrida – 30 foizi, Nukus shahri hamda viloyat markazlarida – 40 foizi, qolgan hududlarda 50 foizi miqdorida ajratish ko'zda tutilganedi .

Davlat maktabgacha ta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirish.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ta'lim sohasini moliyalashtirish va boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qator hukumat qarorlari doirasida "pul o'quvchining ortidan boradi"gan tamoyil bo'yicha byudjet mablag'larini taqsimlashning muqobil va oshkora mexanizmini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish asosida jon boshiga (o'quvchi, tarbiyalanuvchi soniga) moliyalashtirish tartiblari joriy qilindi.

Ma'lumki, jon boshiga (tarbiyalanuvchi, o'quvchi, talaba soniga) ko'ra moliyalashtirishda ta'lim muassasalari xarajatlarining umumiyligi hajmi bir nafar tarbiyalanuvchi, o'quvchi, talaba uchun o'rnatilgan xarajatlar me'yori, tarbiyalanuvchi, o'quvchi, talabalar soni va muassasalarning u yoki bu xususiyatlarini (muassasaning katta-kichikligi, isitish tizimi, alohida toifadagi o'quvchilarni o'qitish dasturlari) aks ettiruvchi maxsus koeffisiyentlarga asoslangan maxsus formula asosida aniqlanadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2022 yil 20 dekabr

3. Davlat maktabgacha ta’lim muassasasi to‘g’risida Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyuldagи 528-son qaroriga 1-ilova) asosida.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-maydagи “Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini yanada rag’batlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi 378-son Qarori, 2-ilova. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.05.2018 y., 09/18/378/1259-son).

5. Abduraxmanov K.X. i dr. Sovremenныy menedjment i reformirovaniye sistemy obrazovaniya v Uzbekistane. Uchebnoye posobiye. – T.: Izdatelstvo REA im. G.V. Plexanova, 2005. – 240 s

6. Abdullayev A.F. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. T.:2020.-13-b.